

1. Mening maktabimda darsdan keyin quyidagi sport to'garaklariga qatnash mumkin:

<b>Sport turi</b>	<b>Hafta kunlari</b>
Ot	Dushanba, payshanba
Boks	Dushanba, juma
Futbol	Seshanba, chorshanba
Suzish	Chorshanba. Payshanba
Basketbol	Seshanba, juma

Men seshanba, payshanba va shanba kunlari bo'ladigan to'garaklarda qatnashishni xohlayman.

Men tanlagan sport to'garaklaridan biri futbol bo'lishi shart.

Men qaysi sport to'garagiga qatnasha olmayman?

- a. Basketbol
- b. Boks
- c. Suzish
- d. Ot

2. Osiyo o'z kitoblarini o'qib tugatganligi sababli kutubxonadan bir necha kitob ijaraga olishga qaror qildi. U har kuni kechqurun 80-100 bet kitob o'qiydi. U kutubxonaga yana 11 kundan keyin boradi. Shu vaqt ichida kitoblari tugab qolmasligi lozim.

Osiyo o'qiydigan har bir kitob 200-250 betdan iborat. Osiyo kutubxonadan nechta kitob ijaraga olishi kerak?

A 2 ta

B 3 ta

C 4 ta

D 5 ta

3. Zeboda yangi kompyuter o'yini sotib olish uchun 30 000 so'm bor.

<b>O'yin nomi</b>	<b>turi</b>	<b>mavzusi</b>	<b>Kerakli uskuna</b>	<b>narxi</b>
1-o'yin	jumboq	ertak	shaxsiy kompyuter	30000 so'm
2-o'yin	strategiya	tarixiy	shaxsiy kompyuter	29000 so'm
3-o'yin	jumboq	fazoviy	o'yin kompyuter	31000 so'm

4 o‘yin	jangari	tarixiy	o‘yin kompyuter	27000 so‘m
---------	---------	---------	-----------------	------------

Zebo jumboq yoki strategiya turidagi o‘yin sotib olmoqchi. O‘yinlar fazoviy yoki tarixiy mavzuda bo‘lishi kerak. Zeboda ham shaxsiy kompyuter, ham o‘yin kompyuteri bor.

Zebo qaysi o‘yinni sotib oladi?

A 1-o‘yinni

B 2-o‘yinni

C 3-o‘yinni

D 4 o‘yinni

4. Usmonda jami 20 ta shokolad bor edi. Ularning ba'zilari sutli, ba'zilari esa qora shokolad edi. Usmon qora shokoladga qaraganda 2 marta ko'p sutli shokolad yedi. Shundan keyin Usmonda sutli shokoladga qaraganda 3 marta ko'p qora shokolad qoldi.

Dastlab Usmonda nechta qora shokolad bor edi?

A 3 ta

B 4 ta

C 5 ta

D 6 ta

5) Futbolchilarga o‘yinda ishtirok etish imkoniyati berilmasa, ular mashg‘ulotlarga ham borishni istamaydi.

Olim: “Behruzga o‘yinda ishtirok etish imkoniyati berildi. Shuning uchun u albatta mashg‘ulotlarga boradi”.

Og‘abek: “Bekzodga o‘yinda ishtirok etish imkoniyati berilmadi. Shuning uchun u mashg‘ulotlarga borishni istamasligi aniq”.

Kimning fikri to‘g‘ri?

- a. Faqat Olimniki
- b. Faqat Og‘abekniki
- c. Ikkalasiniki ham to‘g‘ri
- d. Ikkalasiniki ham noto‘g‘ri

- 6) Akvariumda 750 ta baliq bor. Baliqlar faqat sariq, ko‘k va oq rangda. Akvariumdagi sariq baliqlar ko‘k baliqlarga qaraganda ikki marta ko‘p. Oq baliqlarning soni sariq baliqlarning soniga teng. Akvariumda nechta ko‘k rangli baliqlar bor?
- 150 ta
  - 200 ta
  - 250 ta
  - 300 ta
- 7) Bir oila aylanishga chiqishni rejorashtirmoqda. Ular ichida o‘yin maydonchasi va ferma mavjud bo‘lgan birorta parkka borishni istashmoqda. Lekin ular boradigan parkkacha masofa 35 km dan uzoq bo‘lmasligi va kirish chiptalari 40 000 so‘m dan qimmat bo‘lmasligi mumkin.

Quyidagi jadvalda ular borishi mumkin bo‘lgan parklar ro‘yxati berilgan.

Park nomi	O‘yin maydonchasining mavjudligi	Hayvonot burchagi mavjudligi	Ferma mavjudligi	Parkkacha bo‘lgan masofa (km)	Umumiyligi chiptalar narxi (so‘m)
“Lokomotiv”	Ha	Yo‘q	Ha	35	38 000
“Navro’z”	Yo‘q	Ha	ha	45	36 000
“Anhor”	Ha	Yo‘q	Yo‘q	35	32 000
“Ashxobod”	Ha	Ha	Ha	30	42 000

Ular qaysi parkni tanlashlari kerak?

- “Lokomotiv”
  - “Navro’z”
  - “Anhor”
  - “Ashxobod”
- 8) Shifoxona har kuni ertalab soat 08:00 dan kechki soat 17:00 gacha ishlaydi. Har bir bemor uchun 20 daqiqalik qabul vaqtini ajratiladi. Har bir tish shifokori tushlik uchun 60 daqiqalik tanaffus oladi va boshqa tanaffus olmaydi.

Shifoxona da uch nafar tish shifokori ishlaydi. Bir kunda shifoxona ko‘pi bilan nechta bemorga xizmat ko‘rsatishi mumkin?

- 63 nafar
- 72 nafar
- 81 nafar
- 90 nafar

9. Besh nafar o‘quvchi kim eng ko‘p kitob o‘qishi bo‘yicha musobaqa o‘ynashdi.

Eng kam kitob o‘qigan o‘quvchi Muslima emas.

Faqat 2 nafar o‘quvchi Bekzoddan kam kitob o‘qidi.

Abdulbosit Gulira’nodan kam kitob o‘qidi.

Shahzod rn ko‘p kitob o‘qidi.

### **Quyidagi gaplarning qaysi biri to‘g‘ri?**

- a. Bekzod Muslimadan ko‘proq kitob o‘qidi.
- b. Bekzod Abdulbositdan ko‘proq kitob o‘qidi.
- c. Bekzod Gulira’nodan ko‘proq kitob o‘qidi.
- d. Bekzod eng kam kitob o‘qidi.

10. Mashhur qo’shiqchi bir mакtabga tashrif buyurdi. U maktab direktoriga shunday maslahat berdi: “O‘quvchilarning mакtab sahna tomoshalarida qo’shiq ijro etishlari yoki konsertlarda qatnashishlari uchun imkoniyat yaratish ular uchun juda foydali bo‘ladi”.

### **Quyidagilarning qaysi biri aktrisaning fikriga qo‘shilishingizga asos bo‘la oladi?**

- a. Aktrisa boshqa bir nechta maktablarga ham shunday maslahat bergen.
- b. Bolalar juda ko‘p vaqtini sport va boshqa o‘yinlarni o‘ynashga sarflaydi.
- c. Ko‘pchilik odamlar o‘yinlarni tomosha qilishni yoki konsert tinglashni yaxshi ko‘radi.
- d. Boshqa odamlar oldida sahnada rol ijro etish insonning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga yordam beradi.

11. Sportchi sifatida muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat tug‘ma iste’dod zarur, balki yaxshi ustozga ega bo‘lish va har kuni bir necha soat davomida mashq qilish kerak.

Mirsalim: “Mening onam dunyodagi taniqli sportchi. Demak, uning ustoziga juda yaxshi bo‘lgan bo‘lishi kerak”.

Farzona: “Mening akamning ustoziga eng yaxshilaridan biri va akam har kuni soatlab sport zalda mashq qiladi. Demak, u albatta muvaffaqiyatga erishadi”.

## **Kimning fikri to‘g‘ri?**

- a. Faqat Mirsalimniki
- b. Faqat Farzonaniki
- c. Ikkalasiniki ham to‘g‘ri
- d. Ikkalasiniki ham noto‘g‘ri

12. Akademik litsey har kuni soat 7:30 da ochiladi va soat 16:45 da yopiladi. Har bir darsga 45 daqiqa vaqt ajratilgan va bir o‘qituvchi tomonidan o‘tiladi. Kun davomida 1 soat tushlik uchun tanaffus beriladi va boshqa tanaffus berilmaydi. Akademik litseyda ikki nafar o‘qituvchi ishlaydi.

## **Bir kunda akademik litseyda ko‘pi bilan nechta dars o‘tilishi mumkin?**

- a. 22 ta
- b. 28 ta
- c. 20 ta
- d. 16 ta

13. Shoxruz tug‘ilgan kunini nishonlash uchun tort sotib olishi kerak. Quyidagi jadvalda do‘konda mavjud bo‘lgan 4 dona tort haqidagi ma’lumotlar berilgan:

	Tort bo‘laklari soni	Ichida mevasi bormi?	Ichida kremi bormi?	Narxi (so‘m)
1-tort	12	Ha	Ha	200 000
2-tort	16	Ha	Yo‘q	300 000
3-tort	10	Yo‘q	Yo‘q	150 000
4-tort	20	Yo‘q	Ha	400 000

Tug‘ilgan kunga jami 15 ta odam keladi. Har bir mehmon uchun kamida bitta bo‘lak tort bo‘lishi kerak. Shoxruz faqat bitta tort sotib olishi va uning ichida meva bo‘imasligi kerak.

Shoxruz tort uchun qancha pul sarflashi lozim bo‘ladi?

- a. 200 000
- b. 300 000
- c. 400 000
- d. 150 000

14. Farzona, Shohjahon, Ruxsora va Alibek har hafta futbol tomosha qilgani boradilar va har safar bir qatordagi 4 ta o‘rindiqqa o‘tiradilar. Alibek hech qachon Farzonaning yoniga o‘tirmaydi. Shohjahon esa har doim Ruxsoraning yoniga o‘tiradi.

Ulardan qaysilari ikki chetdagi o‘rindiqlarga o‘tirishadi?

- a. Alibek va Shohjahon
- b. Farzona va Shohjahon
- c. Farzona va Alibek
- d. Ruxsora va Shohjahon

15. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, musiqa darsida har bir bolaga cholg‘u asbobini chalishni o‘rgatish kerak.

Quyidagilarning qaysi biri mutaxassis fikriga qo‘shilishingizga asos bo‘la oladi?

- a. Yosh bolalarni cholg‘uniga o‘rgatish oson
- b. Musiqa maroqli va ommabop fan turi hisoblanadi
- c. Cholg‘uni bilish bir kun kelib katta hayotida yordam beradi
- d. Katta yoshli odamlar uchun cholg‘u chalishni o‘rganish qiyin

16. Humoyun ta’tilga chiqqanida ijaraga mashina olishiga to‘g‘ri keladi. Mashinaning ijara narxi uning necha kunga olinishiga va mashina motorining hajmiga bog‘liq.

Motorning hajmi:	Ijara narxi (so‘m)						
	1 kun	2 kun	3 kun	4 kun	5 kun	6 kun	7 kun
Kichkina	5 000	10 000	15 000	19 000	23 000	27 000	30 000
Katta	8 000	16 000	23 000	30 000	37 000	43 000	49 000

Humoyun mashinani 5 kunga ijaraga olishni xohlaydi.

Humoyunga kichkina motorli mashinani ijaraga olish katta motorli mashinani ijaraga olishga qaraganda qancha arzonga tushadi?

- a. 11000
- b. 14000
- c. 15000
- d. 16000

17. Xokkeyda o‘yinchilar bir-birlari bilan qattiq to‘qnashuvlarga duch kelishadi. Demak, yaxshi o‘yinchi bo‘lish uchun nihoyatda jasur va yaxshi o‘yin texnikasiga ega bo‘lish lozim.

Bekzod: “Men aminmanki, Aziz hech qachon yaxshi o‘yinchi bo‘la olmaydi. U o‘yinda zarba yeyishda juda xavotirlanadi”.

Behruz: “Aziz zarba yeyishdan xavotirlanishi to‘g‘ri, lekin uning konkida uchish texnikasi a’lo darajada. U kelajakda ajoyib o‘yinchi bo‘lishi mumkin”.

Kimning fikri to‘g‘ri?

- a. Faqat Bekzodniki
- b. Faqat Behruzniki
- c. Ikkalasiniki ham to‘g‘ri
- d. Ikkalasiniki ham noto‘g‘ri

18. Yozuvchi bolalarga mo‘ljallangan 3 ta kitob yozdi. Kitoblarning nomi quyidagicha: “Bolalik”, “Yoshlik” va “Beg’uborlik”. 5-sinf bolalari orasida shu kitoblarning qaysi biri mashhur ekanligini aniqlash uchun so‘rovnama o‘tkazildi. So‘rovnama natijalariga ko‘ra:

- “Bolalik” kitobini o‘qigan bolalarning hammasi “Beg’uborlik” kitobini ham o‘qigan;
- “Bolalik” kitobini o‘qigan bolalarning ko‘pchiligi “Yoshlik” kitobini ham o‘qigan;
- “Beg’uborlik” kitobini o‘qimagan bolalar “Yoshlik” kitobini ham o‘qimagan.

Agar Mirsalim “Beg’uborlik” kitobini o‘qigan bo‘lsa, quyidagilarning qaysi biri to‘g‘ri?

- a. U “Bolalik” kitobini o‘qigani aniq
- b. U “Yoshlik” kitobini o‘qiganligi aniq.
- c. U “Bolalik” va “Yoshlik” kitoblarining ikkalasini ham o‘qiganligi aniq
- d. Uning “Bolalik” yoki “Yoshlik” kitoblaridan qaysi birini o‘qiganligi ma’lum emas.